

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

JUMANIYAZOVA SHARIFA MADIYAROVNA


**TALABALAR BILIM KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA
INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AXAMIYATI**

5610535 "Sport faolligi" Xotin-qizlar sportini rivojlantirish
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

N.M. Osmonbekova



Urganch - 2019

| | |
|--|----|
| KIRISH | 3 |
| I BOB. MASALANING ADABIY MANBALAR BO'YICHA HOLATI | |
| 1.1. Innavatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarini oshirish dolzarb pedagogik muammolari..... | 7 |
| 1.2. Nazariy bilimlarni olishda innavatsion texnologiyalarni o'ziga xos jihatlari | 23 |
| II BOB. TADQIQOT VAZIFALARI USLUBLARI VA TASHKIL ETILISHI | |
| 2.1. Tadqiqotning vazifalari..... | 27 |
| 2.2. Tadqiqotning uslublari..... | 27 |
| 2.2.1. Ilmiy uslubiyat adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish..... | 27 |
| 2.2.2. Pedagogik kuzatish..... | 28 |
| 2.2.3. Pedagogik nazorat sinovlari..... | 28 |
| 2.2.4. Pedagogik tajriba..... | 28 |
| 2.2.5. Matematik-statistik hisoblash uslublari | 28 |
| 2.3. Tadqiqotning tashkil qilinishi va o'tkazilishi..... | 29 |
| III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNI QIYOSIY TAXLILI | |
| 3.1. Jismoniy tarbiya darslarini o'qitishda zamonaviy metodlaridan samarali foydalanish | 30 |
| 3.2. Oliy o'quv yurtlarda yangi pedagogik texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirish tizimi va samaradorlik darajasi..... | 35 |
| 3.3. Tadqiqot natijalari va tavsiyalar | 43 |
| XULOSALAR | 51 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 52 |

MUNDARIJA

KIRISH

Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish xamda axolining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etilmoqda.

Chunki sport millatning o'zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jiplashuvida va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda millat sifatidagi qudrati jahon uzra namoyon bo'lib muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat sog'lom va yoshlari ko'p bo'lgan millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi(1).

Boy o'tmish tariximizga nazar tashlasak, ajdodlariimz yaratib bizga qoldirgan yuksak ma'naviy - madaniy va ta'lim-tarbiya merosi sirasida avlodlarni yoshlikdan jismonan baquvvat qilib tarbiyalashning qat'iy tizimi yo'lga qo'yilganligi shoxidi bo'lamiz.

Demak, bizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan va rivojlangan o'ziga xos jismoniy tarbiya maktabi mavjud bo'lgan ana shu maktablarning milliylik va umuminsoniylikka asoslangan tarixiy tajribalarga murojaat qilish, undan bugungi yangiliklar va erishilgan yutuqlarni hayotga tadbiiq etish davr talabidir.

Mavzuning dolzarbligi. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim olayotgan talaba yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini oshirish, bilimi, ko'nikma va

malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda shuning uchun yoshlarni zamon talablari darajasida o'qitish bugungi kun talablaridan biridir.

Pedagogikada "innovatsion texnologiya" kategoriyasining bir nechta tushunchasi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularni baholashda, turlarga ajratishda, pedagog-olimlarning har xil qarashlari va yondashishlari mavjud(2).

Ko'pchilik olimlar o'z tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalarni didaktik shartini bajaradi (Bo'ribayev A).

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: So'nggi yillar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda (O'.Q.Tolipov., Klarin M.V., L.V.Golish., N.Azizxadjaeva). Faol faoliyat jarayonidagina axborotlarni samarali o'zlashtirishga erishish mumkin.

Innovatsion usullari faqat talabalar bilimlari tizimi emas, balki ularning idrok etish qobiliyatlarini, faolliklarini, qiziqishlarini, aqliy faoliyatlarini rivojlanishini ham ta'minlovchi didaktik shart sifatida tushunish keng tarqalgan. Bir qator olimlar esa innovatsion texnologiyalarni quyidagicha tushuntiradilar "innovatsion texnologiyalar tabiatda ob'ektiv mavjud bo'lib, zamonaviy fanlar orqali tan olinadigan dialektik o'zaro aloqalarni o'quv fanlari mazmunida aks ettirishdan iboratdir".

Yuqorida qayd etilgan barcha qoidalar, albatta, o'zicha to'g'ri, biroq to'liq emas. "Innovatsion texnologiya" tushunchasiga to'liq ilmiy ta'rif berish uchun uni boshqa, yanada kengroq tushunchaga solishtirib tadqiq qilish kerak

Tadqiqot maqsadi: Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarini o'rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qollashning samaradorligini o'ziga xos jihatlarini o'rganish.

Tadqiqot ob'ekti: Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qollash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida jismoniy madaniyat fakulteti ikkinchi kurs talabalarida interfoal usullar orqali nazariy bilimlarni oshirishning mazmuni, shakli, vosita va uslublari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- birinchi bosqich talabalarda interfoal usullar orqali jismoniy tarbiya to'g'risida nazariy bilimlarini oshirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi aniqlandi.

- talabalarda sport turiga oid nazariy bilimlarini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari va interfoal usullari belgilandi;

- talabalarni nazariy bilimlarni oshirishda interfoal usullardan foydalanishning mavjud holati o'rganildi;

- talabalarni nazariy bilimlarini oshirishda interfoal usullar orqali mazmunini oshirish, shakli, vosita va yo'llari belgilandi;

- talabalarni nazariy bilimlarni oshirishda interfoal usullarga yo'naltirilgan ilmiy-uslubik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati: Bo'lajak mutaxassislar bo'lmish talabalarning nazariy bilimlari, tafakkuri uzluksiz va uzviy ravishda oshirilganda:

Jismoniy tarbiyada bilim berishning interfoal usul texnologiyasi to'liq ishlab chiqiladi. Shu texnologiya orqali talabalarni va sportga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Aholini sog'lomlashtirish tizimi amalga oshiriladi, mutaxassislarni o'z yo'nalishi bo'yicha ish olib bormasligiga barham berilishiga va jismoniy tarbiyani ommaviy barqarorlikka erishilishiga zamin yaratiladi. Bularning barchasi uzluksiz jismoniy tarbiyaning nazariy bilimlarini shakllanishi natijasida vujudga keladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati:Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi dasrlarida qollanilgan metodlarning amaliy ahamiyati shundaki darsning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib tanlab olingan texnologiyalarning talabalar bilimini oshirish va fikirlash esda saqlab qolish ilmiy isbatlashda ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jixatlari katta ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotda isbotlandi.

Tadqiqot farazi: Talabalarning amaliy faoliyatlari - bu yangi faktlar, empirik xulosalar yoki faoliyatni oshirish maqsadida ilmiy bilimlarni qo'llash yo'li bilan mavjud ob'ektlarni o'rganish va o'zgartirishdir. Talabalarning amaliy faoliyati aniq shakllarda amalga oshiriladi: mehnat, jismoniy, konstruktiv-texnik, hisoblash - o'lchash, tajriba, tasviriy, nutqiy shakllarda. Amaliy faoliyatni oshirish bilan talabalar o'z harakatlarini malaka va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Talabalarning bilish faoliyatlarini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bir qator tadqiqotlarda aks ettiriladi degan faraz qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi. Ishi kirish uchda bob xulosa, amaliy tavsiyalar adabiyotlar ro'yxati dan iborat. Ish 54 betdan iborat matnda bayon qilingan 11 jadval adabiyotlar ro'yxati 28 ta manbani o'z ichiga oladi, shulardan 7 tasi internet saytlari.

I-BOB. MASALANING ADABIY MANBALAR BO'YICHA HOLATI

1.1. Innovatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarini oshirish dolzarb pedagogik muammolari

Hozirgi vaqtda nazariy bilim muammolariga bo'lgan qiziqish oshdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan uch bosqichli kadrlar tayyorlash tizim to'la ishonch bilan bosqichma-bosqich o'tib borayotganligi bunga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining jismoniy, ijtimoiy rivojlanishida olib borilayotgan islohatlar ta'lim tizimidagi barcha qatnashchilarda va shuningdek nazariy bilimlarga ega bo'lishni talab etadi.

O'zbekiston davlatiga ta'lim muassasalariga chuqur bilimlarga ega, tashabbuskor, amaliy malaka, ko'nikmalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi.

Bu kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, talabalarda nazariy bilimlarni oshirishda innovatsion texnologiyalar vositasida nazariy bilimlarni oshirish pedagogik shart - sharoitlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Jahon tsivilizatsiyasiga o'zining bebaho ilmiy merosi bilan ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalar vatani-O'zbekistonda mustaqillik sharofati bilan ulug' ajdodlarimiz asos solgan va olamga mashhur bo'lgan ilmiy maktablarida zamonaviy shaklda istiqbolli yo'nalishlar belgilanib, jahon andozalari darajasiga etkazilmoqda(3).

“Kishilarning umumta'lim va kasbiy bilim darajasini oshirish, yangi talablar asosida yoshlar savodxonligini o'stirish, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish – eng

muhim masala” – deb ta’kidlagan edi O’zbekiston respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimov(5).

Mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo’nalishidir. Zero, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 2-bosqichida ta’lim sifatini oshirish, ta’lim tizimlarida ilg’or zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishishda turli pedagogik uslublarni takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Ushbu talablar pedagog-olimlardan yuksak bilimdonlikni, shaxsni har tomonlama qobiliyatli, barkamol rivojlantirishni talab etadi. O’qitish maqsadlarini insonparvarlashtirilishi oliy o’quv yurtlarida innavatsion texnologiyalar asosida faniga va maqsadlariga, talabalarning innavatsion texnologiyalar ta’lim uslublari va mazmuniga yangi yondoshish zarurligini talab etadi, bu ayniqsa innavatsion texnologiyalar tsikldagi o’quv fanlariga taalluqlidir(4).

Yuqorida ta’kiblab o’tilgan muammolar Davlat ta’lim standartida belgilangan talablar darajasida, hozirgi zamon ilm-fanida uchraydigan integrativ jarayon va bir tomonlama tizimli yondoshuv, ta’lim tizimidagi o’quv fanlarining o’zaro bog’lanishi qonuniyatlaridan paydo bo’layotgan turli pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishi asosida amaga oshiriladi.

So’nggi yillar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda (O’.Q.Tolipov., L.V.Golish., N.Azizxadjaeva). Faol faoliyat jarayonidagina axborotlarni samarali o’zlashtirishga erishish mumkin. Shuning uchun innavatsion texnologiya va ularning rolini o’qish jarayonida takomillashtirishni umuman amalga oshirish bo’yicha talabalarning o’quv - o’rganish faoliyatlarini o’rganish alohida dolzarb ko’rinish oldi.

Innavatsion usullari faqat talabalar bilimlari tizimi emas, balki ularning idrok etish qobiliyatlarini, faolliklarini, qiziqishlarini, aqliy faoliyatlarini rivojlanishini

ham ta'minlovchi didaktik shart sifatida tushunish keng tarqalgan. Texnologiyalarnilarni turli fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari muvofiqligini ta'minlovchi vosita sifatida tor uslubiy tushunish ham mavjuddir.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarda mustaqil didaktik tamoyilga ajralib chiqishi mustahkam tendentsiyasi kuzatilmoqda (G. K. Selevko. N. Azixodjaeva).

Pedagogik texnologiya muammolari O'zbekiston Respublikasi olimlarining ham tadqiqotlarida etakchi muammo sifatida o'rganilib kelinmoqda. chunonchi O'.Q.Tolipov, N.Saidaxmedov, va boshqalar Innnavatsion texnologiyani turli uslublari va tamoyillari va ularning o'quv jarayonida, fanlarni bilishda qo'llanilishini, ta'lim tizimi komponentlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilganlar.

Demak, pedagogik texnologiya o'quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish uchun zarur. Muhim qoidalarni aniqlash va amalga oshirishda quyidagi jarayonlarga imkon beradi:

a) fanning muhim g'oyalarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlari asosiy jihatlariga talabalar e'tiborini jalb etish;

b)doimiy ravishda idrok etish masalalarini murakkablashtirib borib, talabalar ijodiy tashabbuskorligi va o'quv mustaqilligi ko'lamini kengaytirish, ko'p tomonlama innnavatsion texnologiyalarni samarali amalga oshirish uchun didaktik vositalarning turli xilliklarini qo'llash, bo'yicha bosqichma-bosqich tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

v)o'quv predmetlarining turli vositalari bilan, ularning uzviy birligida talabalarda o'rganishga qiziqishni shakllantirish;

s)o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ijodiy hamkorlikni amalga oshirish;

Ushbu vazifalar ko'lamidan ma'lumki, fanlarning ilmiylikini, o'rganilish darajasini oshirish kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimida har bir fanning o'rnini, standartlarini ishlab chiqishda pedagogik texnologiya holatiga e'tibor berilishi shart. Zero bugungi kunda barcha fanlar nazariy va amaliy qismlarga bo'linib

o'rganilmoqda. Endilikda fanlarning o'zaro aloqadorligi darajasini yangi pedagogik texnologik zamon talablari asosida o'rganish texnologiya va zamon talablari asosida o'rganish va rivojlantirish vaqti keldi. Bizga ma'lumki, har bir fanning o'qitish uslubiyot o'ziga xos mazmunga ega. O'qitish uslubiyoti, avvalo fanning pedagogikasi bilan bog'liqdir. Fanlarning o'zaro aloqadorligi ham pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlari ta'limi tizimida innovatsion usullarni takomillashtirish, shuningdek, ta'lim standartlarini, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda pedagogik texnologiya qonuniyatlariga amal qilish hayot taqozosidir(6).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirgi kungacha oliy o'quv yurtlarida innovatsion texnologiyaning mukammal tizimi ishlab chiqilmagan. SHu bilan birga ushbu tizimning zaruriyati davr taqozosidir, zero innovatsion texnologiya talabalarning bilimini, ko'nikma va malakalarini ma'lum bir tizim asosida o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar orqali o'qishning vazifalari, mazmuni, uslublari, vositalari, tashkil etilishi shakllari va natijalarida o'z aksini topishi kerak.

Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish usullarini shakllantirmasdan, ularning ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalarining o'zaro bog'liqligini ochib bermay, bu muammoni to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun, pedagogik texnologiyaning didaktik muammosi ilgari to'plangan g'oyalarni va amaliy echimlarni sintez qilish va umumlashtirishni ko'p tomonlama yondoshishni talab etadi(7).

Talabalarning amaliy faoliyatlari - bu yangi faktlar, empirik xulosalar yoki faoliyatni oshirish maqsadida ilmiy bilimlarni qo'llash yo'li bilan mavjud ob'ektlarni o'rganish va o'zgartirishdir. Talabalarning amaliy faoliyati aniq shakllarda amalga oshiriladi: mehnat, jismoniy, konstruktiv-texnik, hisoblash - o'lchash, tajriba, tasviriy, nutqiy shakllarda. Amaliy faoliyatni oshirish bilan talabalar o'z harakatlarini malaka va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Talabalarning bilish faoliyatlarini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bir qator tadqiqotlarda aks ettirilgan (T.K.Aleksandrova. N.S.Antonov.

E.S.Valovich, V.M.Kosataya, T.A.Ladijenskaya va boshqalar). Ularni o'rganib chiqish innavatsion texnologiya asoslari sifatida faoliyat turlarini ajratish asosini bir-biriga yaqin fanlar uchun umumiy uslublar (kuzatish, tajriba) va alohida fan sohalar uchun o'ziga xos amallar usullari tashkil etadi degan xulosaga kelishga imkon beradi, ularni aralash fanlarga ko'chirish ta'siri ostida talabalarning umumlashtirilgan malakalariga aylanadi.

Xozirgi kunda pedagogik texnologiya quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1) talabani dunyo qarashi tashkil topishi uchun zarur bo'lgan bir-biriga yaqin aralash ilmiy sohalar uchun umumiy bo'lgan ilmiy faktlar, nazariyalar, qonunlar, g'oyalarga tayanib tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) aralash, yaqin fanlar uchun umumiy bo'lgan va birinchi navbatda fanlar o'rtasidagi g'oyaviy aloqadorlikni o'zlashtirish yanada murakkab uslublariga asoslangan elementar malakalarini shakllantirish

3) umumlashtirilgan bilimlar va malakalar asosida fan bilimlariga to'g'ri baholash munosabatini shakllantirish, bunda tsikllararo aloqalar va dunyoqarash o'quv fanlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

4) fan asoslarini amaliyotda kompleks qo'llashni talab etuvchi boshqa bilimlar va mehnat malakalarini shakllantirish(8).

Har tomonlama pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida asosiy pedagogik yo'nalishning, umumiy tendentsiyasi, talabalar harakat faoliyati strategiyasi ishlab chiqiladi, talabalarning bilimni o'zlashtirishini tashkil etish mazmunini, uslubini va shaklini qayta tashkil etadi. Konstruktiv funktsiyalari darajasida zamonaviy o'qitishda innavatsion usullarning ahamiyati mustaqil tamoyil darajasigacha ko'tarildi, uning asosida turli doiralarda amal qiluvchi pedagogik texnologiyalar quriladi (o'quv mavzusi, o'quv fani, o'quv muammosi, va boshqalar). Umuman olganda ular o'qish jarayonining mazmuniga zamonaviy konstruktiv yondoshadi. Har bir o'quv fanining talabalar tomonidan tez o'zlashtirilishi, bunda innavatsion usullarni qo'llash ma'lum bir uslublar asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar turlarga ajratish ishlab chiqilmagan. Pedagogik texnologiya ilk marotaba ishlab chiqilgan turi vaqt mezonlariga asoslangan: dastlabki, yordamchi va keyingi (istiqbolli) aloqalar (Yu.Vaytkyavichus. N.M.Verzilin. V.M.Korsunskaya va boshqalar) ko'rinishida bo'lgan.

1-chizma

| Nazariy bilim jarayonining xususiyatlari | | | | |
|--|-------------------------|--|---|------------------------------|
| Ko'p qirrali jarayon | Uzoq muddat davom etadi | Yaxlit holda va kontsentrik asosda amalga oshadi | Ikki tomonlama xususiyat, Bolaning faolligi | qarama-qarshiliklar ko'pligi |

«O'zbekiston Respublikasida «Pedagogika ta'lim kontsepsiyasi»da maktablarda ishlashi lozim bo'lgan o'qituvchi ideali qo'yidagicha tasvirlangan: «O'zbekiston Respublikasi maktablarida ishlash uchun tayyorlanayotgan o'qituvchilar pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni, ixtisosga doir bilim, ko'nikmalarni, psixologik-pedagogik bilimlar va ko'nikmalarni egallagan, diniy ilmlardan xabardor, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ravnaq topishiga ishongan, vatanparvarlik, fuqorolik burchini anglagan, o'qituvchilik kasbini va bolalarni sevadigan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli, talabalarning barkamol shaxs bo'lib etishishlariga ko'maklashadigan bo'lmog'i kerak».

Aniq bir maqsadga qaratilgan nazariy bilimning samaradorligi o'qituvchining qanday uslublardan foydalanishiga bog'liq. Shu sababli, klassik usullar bilan bir qatorda zamonaviy usullardan ham oqilona foydalanish tarbiya jarayonida samarali natijalarga olib keladi.


Uslub-lotin tilidan olingan bo'lib, «yo'l», «usul», degan ma'noni anglatadi. quyida pedagogikada mumtoz deb atalib, *innovatsion* hisoblanmish uslublar to'g'risida fikr yuritiladi(9).

Ta'lim uslubi - ta'lim jarayonida o'qituvchi yakka talaba yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir masalani hal qilish uchun talabalarning yosh va individual xususiyatlarini, bilimdonlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllarining majmuasidir. Axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab ta'lim usullari quyidagi turlarga bo'linadi (2-chizma):

Jismoniy tarbiya ta'limi murakkab jarayon bo'lib, uning uslublari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi.

Xalq pedagogikasida turli ta'lim usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul va vositalar nihoyatda rang-barangdir. Bular ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi

2-chizma



Sport turlarining texnikasini o'rgatish va uni takomillashtirish – o'quv jarayoninig tarkibiy qismidir. Sport ayrim turlari texnikasini o'rgatish uslubikasining umumiy asoslari quyida bayon etilgan. Ulardan eng muhimlari – o'rgatilgan texnika to'g'risida tasavvur hosil qilishning, to'g'ri harakat qilish va

to'g'ri faoliyat ko'rsatishni amalda bilishning, bajara olishni baholashning, xatolarni aniqlash va ularni tuzatishning uslublari va vositalaridir(10).

O'rgatish uslublari. Sport texnikasini o'rgatish uchun o'qituvchi uchta asosiy uslubdan foydalanadi; tushuntirish, ko'rsatish va bevosita (jismoniy) yordam. Bu uslublarning asosiy vazifasi - to'g'ri harakat tasavvurini hosil qilish, harakatni bilib olishga yordam berish, xatolarni ko'rsatish va ularni tuzatishdir.

Sport texnikasini o'rgatish uslublarning har qaysisi, o'zining ijobiy tomonlari borligiga qaramasdan, tez va samarali o'rgatishni to'la- to'kis ta'minlay olmaydi. Shuning uchun amalda hamma uslublar ayrim – ayrim ham, bir vaqtning o'zida birga ham qo'llanadi. Masalan, o'qituvchi kerakli harakatni tushuntarayotib, bir vaqtning o'zida ko'rsatadi eam talaba faoliyatini tuzatayotib, shu bilan birga qanday tuzatish kerakligini aytib ham beradi. Quyidagi ko'rsatilgan uslublarni qulayroq bayon qilish uchun, ular alohida – alohida tasvirlangan.

So'z uslubi va undan foydalanish. Sport texnikasini o'rgatishda so'zning roli juda katta. Lekin so'z bilan murakkab faoliyat haqida, xarakat tezligi haqida, qancha kuch sarflash haqida, inertsiya momentlari va boshqalar haqida tasavvur hosil qilish qiyin.

Asosiy rol o'ynaydigani – amaliy mashg'ulotlar vaqtidagi tushuntirishdir. Bunda talaba u yoki bu harakatni bajarishga intiladi, keyin, ko'rsatma olib, kerakli harakatni qayta bajarishga urinib ko'radi va hakazo. Ko'p so'zli, uzundan – uzoq tushuntirishdan qochish kerak. Tushuntirishda ildamlab ketib qolmay o'rgatishning ayni paytida nima kerak bo'lsa, shu narsa to'g'risida gapirish kerak. O'rgatish boshlarida qisqa, aniq tushuntirish kerak. Sport texnikasini o'zlashtira borgan sari tushuntirish tobora ko'proq detallarni o'z ichiga olib, yanada chuqurroq bo'la boradi(11).

Oddiy tushuntirish bilan birga, obrazli tushuntirish ham qo'llanadi. Bunda o'qituvchiga tashish bo'lgan obraz va tasavvurlardan foydalaniladi. Masalan, yugurib kelib balandlikka “perekidnoy” usuli bilan sakrashni o'rgatish paytida, ko'pgina talabalar planka ustidan gorizontol holatga o'tishni bilib olishlari juda qiyin bo'ladi. Bu qiyinchilikni engish uchun, mana bunday obrazli tushuntirish

qo'llanadi; "Siz o'tadigan plankani baland gimnastik stol, sakrab uning ustiga qorin bilan yotib olish kerak, deb faraz qiling".

Masalan, yurish va yugurishda odatda sanoq yoki kerakli ritmda bajariladigan boshqa tovush signallari yordamida ritm o'rgatiladi.

Texnikani o'rgatish va takomillashtirish protsessida o'rganilayotgan mashqni bajarishdan oldin va uni bajarish paytida, eslatish va aytib turish muvaffaqiyatli qo'llanadi. Sportchiga ma'lum, lekin yaxshi xotirlab qolinmagan yoki bajarish paytida esidan chiqib qolayotgan joylarinigina aytib turish mumkin. Aytib turish vasiylikka aylanib ketmasligi kerak. Ayniqsa musobaqalar vaqtida bunga o'rgatish yaramaydi(12).

Nihoyat, sport texnikasini o'rgatish natijasini tahlil qilish kerak. O'qituvchining sportchi bilan suhbat, o'rgatish natijasini baholashga, talabaning harakat to'g'risidagi tasavvurini amalda bajarish bilan taqqoslashga, uning vazifalar belgilashga imkon beradi. Tahlil har mashg'ulotda o'rgatish protsessida va ayniqsa mashg'ulot oxirida o'tkaziladi.

Ko'rsatish uslubi va undan foydalanish. Sport trenirovkasini o'rgatishda namuna ko'rsatish muhim rol o'ynaydi. Ko'rsatilayotganni kuzatib, talaba sport texnikasining yaxlit ko'rinishini qamrab olishi, ijroning oson qiyinligi va boshqa ko'p narsalar to'g'risida tasavvur hosil qilishi mumkin. o'rgatishda ko'rsatishning muhim roli yana shundaki, namoyish qilinayotgan texnikani ko'z bilan ko'rganda, u talabalar ongida eng ob'ektiv aks etadi, harakat haqida hosil bo'lgan tasavvur to'g'ri bo'ladi.

Odatda mashqni trener yoki texnikasi yaxshi sportchi ko'rsatadi. SHuningdek, kinofilmlar, kinokoltsovkalar, kinogrammalar, plakatlar, fotosuratlar, rasmlar, maketlar namoyish qilish kerak.

Texnikaning detallari to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilish uchun, o'qituvchi ko'pincha alohida elementlarni ko'rsatib beradi. Masalan, snaryadni qanday ushlashi yoki yadro itqitishda panjalarning eng oxirgi harakatini yoki tepsinish joyiga oyoq tagi qanday qo'yilishini va shu kabilarni alohida-alohida ko'rsatadi(13).

Sport texnikasini namoyish qilishda harakatning tez bo'lishi ko'rib idrok qilib olishni qiyinlashtiradi. Ba'zan, masalan, disk, nayza uloqtirish va yadro itqitishda o'qituvchi sekinlashtirib ko'rsatishdan foydalanishi mumkin.

Juda murakkab sport turlaridagi ayrim elementlarni joydan turib ko'rsatish roq. Masalan, turnikda, halqalarda osilib turib, uzunlikka "qaychi" usulida sakrashdagi oyoq harakatlarini sekin ko'rsatish mumkin. YUgurib kelib "perekidnoy" usulida balandlikka sakrashda planka ustidan o'tish paytini gimnastik otda (ko'ndalang ko'yib) ko'rsatish mumkin. Gimnastik otda g'ov osha yugurishdagi to'siq ustidan o'tishni ko'rsatsa ham bo'ladi. Ammo o'rgatishda sekin "ko'rsatishga" juda berilib ketish yaramaydi. U faqat tushuntirish uchun kerak, harakatlarni tez va yaxshi bilib olishga va ularni tushunishga yordam beradi.

Ko'rsatishni kuzatayotganda, harakat mazmuniga e'tibor berish lozim. talaba ko'rsatilayotgan harakat yoki faoliyatni mayda-chuyda detallariga e'tibor qilishi kerak. Unda yaxlit faoliyat haqida, uning asosiy strukturasi va bajarish tezligi to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi kerak. Shuning bilan birga mazkur faoliyat boshdan oxir qanday ritmda bajarilishini ham tasavvur etmoq kerak. Keyinchalik talabanning kuzatishi detallasha boradi, uning e'tibori alohida harakatlarga, ijrodagi "nozik" tomonlarga jalb qilinadi. Lekin mashg'ulotlar protsessida goh faoliyatning yaxlit ijrosiga e'tibor berish kerak bo'lsa, goho detallarni "hijjalab" tushuntirish kerak bo'ladi(14).

Talabanning bevosita yordami uslubi va undan foydalanish. O'qituvchi sport texnikasini o'rganayotgan paytda, talabaga kerakli holatni egallashga yoki zarur harakat qilishga yordam berishi mumkin.

O'qituvchining jismoniy yordami bilan sportchida o'rganilayotgan texnikasi to'g'risida kinestetik hissiyot asosida tasavvur hosil bo'ladi. Bu mustaqil ijro paytidagi hissiyotiga ozmi-ko'pmi o'xshash bo'ladi. O'qituvchi hammadan ham ko'proq dastlabki holatlarni, gavda tutishni va texnika elementlarini o'rgatish paytida yordam berib yuboradi. Masalan, yadro itqitishni o'rgatayotganda, talabanning gavdasini engashtiradi, snaryad tutgan qo'lining holatini to'g'rilab qo'yadi va hokazo.

Talaba mashqni yaxlit bajarayotganda yoki uning elementini bajarayotganda ham o'qituvchi yordam berib yubora oladi. O'rgatish paytida bu juda foydali bo'lishi mumkin, lekin buning uchun o'qituvchi malakali bo'lishi, yordam berishning tegishli yo'llarini bilishi kerak.

Sport texnikasini egallash. Harakatni va faoliyat haqidagi tasavvurini amalga oshirish bilan, talaba sport texnikasini egallaydi. Bunga erishish o'rgatish samarasini oshiradigan turli uslublar, usullar, yo'llar bilan bo'ladi. Bular ichida mashqni boshdan - oxir yaxlit o'rgatish uslubi (yaxlit uslub) va bo'lak-bo'lak o'rgatish uslubi (bo'laklash uslubi) birinchi o'rinda turadi(15).

Mashqni yaxlit o'rgatish uslubi. Bu - o'rganilayotgan harakat yoki faoliyatni (mashqni), qanday ko'rsatilgan va tushuntirilgan bo'lsa, xuddi shunday yaxlit takrorlash demakdir. Yugurish, saakrash, uloqtirishni o'rgatishda bu uslub, shug'ullanuvchilarning shaxsiy qobiliyatiga mos keladigan harakat malakalari hosil qilishga yordam beradi.

Juda murakkab texnikasini yaxlit uslub bilan o'rgatishda oldiniga o'rganilayotgan harakatning mohiyatini o'zgartirmasdan oddiylashtirish kerak. Masalan, uloqtirish mohiyati, snaryadni tashlab yuborishdan iborat. Nayza turgan joydan tashlansa ham, yugurib kelib tashlansa ham uloqtirish bari bir uloqtirishligicha qolaveradi-yu, faqat faoliyat murakkabligi o'zgaradi. Mashq asta-sekin murakkablashtira boriladi. Har gal mashq oldingisidan murakkablashib borish, o'rganilayotgan texnikaning to'liq bajarilishiga asta-sekin etib olinadi(16).

Texnika xususiyatlari qanday ekanligiga qarab, mashqlarning murakkablasha borish tartibi har qaysi sport turining o'ziga xos belgilanadi. sport turlari texnikasini soddalashtirish har xil bo'ladi. Masalan, uloqtirishni o'rganishni yugurib kelmasdan uloqtirishdan boshlanayotganda, ana shu turgan joydan uloqtirishning o'zi ham soddalashtiriladi. Sakrash texnikasini o'rgatishda, faoliyatni murakkablashtiradigan harakatlar istisno qilinadi. Birinchi mashk elementar sakrashdan iborat bo'ladi.

Yugurish harakatlari nihoyatda tabiiy va insonga hos bo'lgani uchun, yugurishni o'rgatish boshqacha bo'ladi. Yugurish texnikasini yaxlit uslub bilan

o'rgatish mumkin. Birinchi mashq qilich tezlikda yugurishdan iborat bo'ladi. Keyingi mashqlarga harakat amplitudasini oshirishga, tepsinish to'liq bo'lishiga va hokazolarga erishish uchun, har xil tezlikdagi yugurishlar kiritiladi(17).

Mashqni bo'laklab o'rgatish uslubi. Bu uslub yaxlit mashqning ayrim qismlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, ularni o'rganish, tuzatish, takomillashtirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Talaba birmuncha vaqt mashqning bir elementini, detalini o'zlashtiradi. Ayrim harakat etarli darajada mustahkam o'zlashtirilgandan keyin, u yaxlit faoliyat bilan bog'lanadi. Buning uchun talaba tuzatilgan detalning to'g'ri bajarilishiga e'tibor berib, yaxlit faoliyatni qaytadan bajaradi. Shuni nazarda tutish kerakki, alohida o'zlashtirilgan harakat yaxlit faoliyatning strukturasi o'zgartirmasagina u bilan oson bog'lana oladi.

Bo'laklab o'rgatish uslubi bilan yaxlit o'rgatish uslubi bir – birini to'ldiradi. O'rgatish protsessida ular navbatma-navbat qo'llaniladi. Oldin harakat yaxlit o'rgatiladi, keyin bo'laklab o'rgatiladi, keyin yana yaxlit o'rgatiladi va hokazo.

Sport texnikasini amaliy bajarishni o'rgatish usullari va yo'llari. Ko'rsatilgan uslublar bilan sport texnikasini o'rgatish protsessida mashqni birinchi bor bajarishga va to'g'ri bajarishga yordam beradigan turli xil usullar va yo'llar o'rganilayotgan mashqni bajarish sharoitini lashtirishga asoslangan.

Mashqni to'g'ri bajarish uchun, ayniqsa birinchi gal to'g'ri bajarish uchun tashqi sharoitni o'rganish, ya'ni uloqtiruvchilar uchun snaryad og'irligini kamaytirish, g'ov osharlar va sakrovchilar uchun to'siq balandligini pasaytirish, langarcho'p bilan sakrovchilar uchun ushish balandligini pasaytirish, yuguruvchilar uchun masofani qisqartirish va hokazolar tavsiya etiladi. Tashqi sharoitlashtirish, unchalik to'g'ri bo'lmagan malaka mustahkamlanib qolmas uchun, vaqtincha bo'lishi kerak(18).

Bir qator hollarda mashqning dastlabki ijrosi to'g'riroq bo'lsin uchun, uni sekinlashtirib bajariladi. Lekin kichik tezlikda ko'p mashq qilish yaramaydi, chunki noto'g'ri malaka hosil bo'lib qolishi mumkin. O'rganilayotgan harakat yoki faoliyatni sekin bajarish ta'lim berish uchungina kerak. U harakatlarni

birinchi gal o'rganilayotganda to'g'riroq bajarish va hatolarni tuzatish uchungina qo'llaniladi.

Dastlabki sekin ijroning to'g'ri bo'lishiga o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarish bilan erishish mumkin. "Men bilan birga bajaring" – deb, o'qituvchi harakatini sekin bajaradi, talaba esa, unga qarab harakatni takrorlaydi. SHu usul bilan ayrim harakatlarni ham bajarish mumkin. Masalan, talaba oldinga parallel siljiyotgan o'qituvchi bilan birga, ikki qadam yugurishni, langarcho'pni qayta ushlab", uni tayanch holatiga o'tkazadi.

O'rgatishning boshlang'ich davrida ko'proq, alohida-alohida ketma-ket tushuntirish va ijro etish usuli qo'llanadi. Bu usuldan elementlar texnikaning dastlabki holatini, gavda tutishini, ayrim detallarin o'rgatish paytida foydalaniladi. Ayrim holatni yoki harakatni qisqa tushuntirishdan keyin talaba shu detalni ijro qiladi, keyin yana yangi detalni o'qituvchi tushuntirib, talaba ijro etadi va hokazo. Toki talab qilingan faoliyatni talaba alohida – alohida, ketma-ket to'la bajaradigan bo'lgunicha shunday qilinaveradi(19).

Sharoitda sport texnikasini to'liq yoki uning ayrim qismlariga o'xshatib bajariladigan imitatsiya (taqlid qilish) mashqlari ham foydalidir. Ularni talab qilinayotgan harakatni odatdagi sharoitda bajarilayotgandek bajarish kerak.

Imtatsiya ko'proq uloqtirish texnikasini o'rganishda qo'llanadi. Uloqtiruvchi bunday mashqlarda ko'p kuch sarflamasdan, faqat harakat to'g'ri bo'lishiga e'tibor berib, uni ko'p marta takrorlay oladi. sportning boshqa turlarini o'rgatishdan ham texnikaning ayrim elementlari imitatsiya qilinadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiqi, imitatsiya mashqlari, faqat endi boshlovchi sportchilarga emas, balki masterlarga ham texnikani bilib olishda va uni takomillashtirida yordam beradi.To'g'ri bajarish tashqi mo'ljallar qo'yish bilan boshlanadi. Bunday mo'ljallar har xil bo'lishi mumkin. Bu avvalo harakat yo'nalishini mo'ljallab olishdir. Masalan, snaryadning yuqori traektoriyada uchishiga erishish va oyoq kuchidan

maksimal foydalanish uchun, yadroni baland qo'yilgan planka yoki daraxt shoxi ustidan o'tadigan qilib itqitish tavsiya qilinadi. sportda erga chizilgan har xil chiziqlar keng qo'llanadi (to'g'ri yo'nalishda yugurish, uch hatlab sakrash yugurib kelish va boshqalar uchun). Mo'ljallar harakat amplitudasini oshirishga ham yordam berishi mumkin. Masalan, balandlikka sakrovchilarga texnikani o'rgatish paytida balandlikka sakrab osib qo'yilgan to'pga siltovchi oyoq tagini etkazish tavsiya qilinadi. G'ov ustidan o'tishda tanani oldinga egilishini oshirish uchun, talaba g'ovning narigi tomonida o'qituvchi ushlab turgan ro'molchaga oldindagi qo'lini tekkiza olishi kerak.

Yo'lkadagi mo'ljallar yugurish paytida qadamning uzunligi va chastotasini o'zgartirishga yordam beradi. Masalan, qadam chastotasini oshirish uchun, yo'lkada bir-biridan 150 sm masofada qo'yilgan tayoqchalar ustidan to'xtamasdan yugurib o'tish qo'llaniladi. Yo'lkadagi mo'ljallar g'ovlar osha yugurishda, uzunlikka, balandlikka va uch hatlab sakrashda yugurib kelishda qadam ritmini bilib olishga yordam beradi. Masalan, yangi shug'ullanuvchi qaerdan tepsinishni, qaerga tushushni va to'siqlar o'rtasida qanday qadam tashlashni ko'rib tursa, g'ov oshish unga osonroq bo'ladi. Nayza uloqtirishda "tashlash" qadamlari ritmini, tashlashni va boshqalarni o'rgatishda ham belgilar qo'yishdan foydalaniladi(20).

Sport texnikasini o'rgatishda ham boshqa yo'llardan ham foydalaniladi.

Bir analizatorni yaxshi ishlashi uchun, ikkinchisini vaqtincha ishdan chiqarib qo'yish ham mumkin. Masalan, talabaga disk uloqtirish texnikasini o'rgatayotganda, ko'zni yumib aylanish tavsiya qilinadi. Ko'zni yumish, vestibulyar apparatning aylanish paytida muvozanatni saqlashdagi rolini oshiradi.

Bunday yo'l oddiy sharoitda aylana oladigan shug'ullanuvchilarga beriladi.

Ko'rsatilgan hamma usullar va yo'llarning faqat o'rgatish ahamiyati bor xolos. Sportchi ortiqcha zo'r bermasdan, maksimal kuch sarflay oladigan bo'lib olgandan keyin bunga ehtiyoj qolmaydi.

O'rganish jarayonida texnikani o'stirishga mo'ljallangan maxsus mashqlardan eng ko'p foydalaniladi. SHuningdek, o'rganilayotgan mashqlarni

o'yin protsessida bajarish (ayniqsa yosh sportchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda) ham qo'llaniladi. Bunda shugullanuvchilar o'rganganlarini mustahkamlaydilar hamda harakatlarini va faoliyatni ortiqcha kuch sarflamasdan, erkin bajaradigan bo'ladilar.

To'g'ri bajarish baxolash, xatolarni tuzatish. Sport texnikasini o'rgatish va takomillashtirish protsessida to'g'ri bajarilishni muttasil baholab, xatolarni aniqlab va ularni tuzatib borish muhimdir. SHug'ullanuvchilar o'z xato va kamchiliklarini ko'ra bilishlari muvaffaqiyatli o'rgatishning muhim sharti hisoblanadi.

To'g'ri bajarishni baholashda aniq seza bilishning muhim ahamiyati bor. Bu esa shugullanuvchilarning trenirovka protsessida yaxshilana boradi.

Pedagogikada nazariy bilim olish uslublari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar;
- faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribalarni shakllantirish usullari;
- mustaqil bilim olish usullari;
- ragbatlantirish va jazolash usullari(21).

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullarga: talabalarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu usullar orqali jamiyat talabalar oldiga qanday talablar qo'yayotgani etkaziladi. Bular asosan so'z orqali ifodalanadi.

Tushuntirish - ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldir.

Tushuntirishda talabalarga mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarga.

Ikkinchi guruh - kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali ta'lim berish usullariga.

Uchinchi guruh - ta'lim jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko'rsatish.


To'rtinchi guruh - yaxshi bajarilgan ishlarni o'rtoqlari oldida ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Bizning fikrimizcha, talabalarda quyida keltirilgan chizma tarzida berilgan bosqichlarda nazariy bilimlar, asta-sekin chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi (3-chizma).

Talabalarga ta'lim berilgan ularda intiluvchanlik, mexnatsevarlik, kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatlari kamol toptiriladi.

Ta'lim mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan doimiy boyitib kelingan. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino asarlarida jismoniy ta'lim va uni o'rgatish haqidagi muhim fikrlarni ko'rish mumkin.

3-chizma



1. 2. Nazariy bilim olishda innovatsion texnologiyalarini o'ziga xos jihatlari

Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga boydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohalaridagi, shuningdek, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi.

Uzoq davrlar mobaynida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinadi. Shu muammolarni echish va o'z extiyojlarini kondirish maksadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, ularning yashashi, kamol topishini ta'minlaydigani sog'lik va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan faoliyatdir(22).

Nazariy ta'limga oid bilimlar antik dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari Platon, Aristotel, Ktesiy, Ksenofont asarlarida, shuningdek qadimgi Misr, Messopotamiya, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida o'z aksini topgan edi.

Kur'oni Karimni, Hadislarni, qobusnomani, ulug' mutaffakkir-larimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Muso Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Markaziy asarlarida insonning yashashi uchun, tabiat ehsonlarini o'zlashtirish, ijodiy mehnat qilish kerakligi qayta uqtirilganligi bilan talabalarni tanishtirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Nazariy bilim berishda o'qitishning turli-tuman uslublaridan foydalaniladi. Bu o'rinda I.Ya. Lerner, M. N Skatkin, M. A. Danilov, B. P. Esipning tavsiya qiladigan uslublaridan foydalanilinish ijobiy natijalarni beradi. Ular quyidagilar:

- tushuntirish uslubi
- reproduktiv uslub
- muammoli bayon qilish uslubi - qisman izlanish uslubi
- tadqiqot uslubi.

V.P.Simonov tasnifi bo'yicha nazariy tarbiyalashda talabalarni guruhlarga ajratib ta'lim berish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi dominantlik qiladigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda talabaning eng asosiy vazifasi o'qituvchi taqdim qilayotgan kategoriyalarni idrok etish va o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilayotgan materialni reproduksiya qilishdan iborat. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi(23).

Ikkinchi guruhga o'qitishning turli shakllari: mashqlar misollar va masalalar, amaliy va mustaqil ishlar kiradi. Bu o'rinda, bizning fikrimizcha talaba faoliyatining harakteri tavsiya etilgan uslubning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining o'rnini esa pedagogik jarayonni mohirona boshqarishdan iborat bo'ladi.

Talabalarga nazariy ta'lim berishda muammoli o'qitish uslublari ham samarali natijalarni beradi, chunki ta'limda muammoli yondoshish o'quv dasturlarida ham, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda ham, talabalarning mustaqil ishlarida ham o'z ifodasini topadi.

Talabalarda nazariy bilimlarni turli-tuman muammoli ta'lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalarni beradi va jismoniy tarbiya masalalarining echimini topishda qo'l keladi.

Innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni oshirish talabalarda bilimdonlikni va madaniyatni qaror toptirishga qaratilgan.

Ilmiy izlanish jarayonida uzluksiz, yaxlit, bog'liqlikni ta'minlovchi «bosqichli ta'lim» kontseptsiyasining to'laqonli amalga oshmayotganligi sababli talaba yoshlarning bilim darajasi sust rivojlanayotganligi aniqlandi(24).

Talabalarda innovatsion («yangilik elementlari orqali») nazariy bilimlarni pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib real pedagogik jarayonni vujudga keltiradi va bu jarayon turli ta'lim-tarbiya kontseptsiyalari,

nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi, ta'lim tizimi muassasalarida tadbiq etilmokda.

Kuchli ta'sirchan va mustahkam jismoniy ta'lim tizimini faqatgina fan o'rnatgan ob'ektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta innovatsion texnologiya bilan bog'liqdir.

Innovatsion pedagogikani, ko'pincha, an'anaviy, alternativ deb ataydilar. Faraz qilayotgan rivojlanish strategiyamiz «rivojlantiruvchi o'qitish» yo'nalishlaridan, eng avvalo, o'z intilishlarini ta'lim tizimida innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni qaror toptirish, bilimdonlikni va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. «Bolalarning qanaqa tug'ilishi bu hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning etarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini munosib o'tkazishi, ta'limga bog'liqdir», - deb ta'kidlaydi A. Munavvarov (1996, 78). Bugungi kunda gumanistik pedagogika uni maktabdagi munosabatlar markaziga qo'yishni va kerakligicha rivojlana olishi uchun hamma ishni bajarishni talab qiladi(25).

«Gumanistik pedagogikani ko'pincha, innovatsion deb ataydilar, lekin uning innovatsionligi faqatgina biz uchun, zamonaviy g'arb tizimlari alaqachon gumanistik yo'nalishga o'ta boshlab va asta - sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan» (Mavlonova va boshq., 1999,)

Gumanistik pedagogikani to'la ma'noda innovatsion deb aytish mumkin. U tashqaridan in'ektsiya talab qilmaydi. Yuqori o'quv tarbiyaviy ta'sir natijalari tizimining qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi.

Gumanizm (insonparvarlik) - insonning dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boyliklarning yagona kontseptsiyasidir. Bu kontseptsiyaning asosiy qoidasi shaxs qadr qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish huquqini tan olishdan iboratdir.

Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsga qaratilgan. Uning belgilari:

- nazariy bilimlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish o'rniga psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishga diqqatning qaratilishi;

- kuchlarni erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirish uchun jamlash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqoroni etishtirish;
- o'quv jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart - sharoitlar bilan ta'minlash(26).
- o'quv jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar pedagogikadan, pedagogik bosimdan voz kechib, talaba va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish, talaba faoliyati va shaxsi asosiy ahamiyat kasb etuvchi, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushunish kerak.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlari, o'zlashtirish faoliyati, to'la huquqli sub'ektning mustaqil, erkin shaxs bo'lib etishtirishdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma ta'lim olish imkoniyatlarini, shu jumladan nazariy bilimdonlikni ochib bera bilishi, uning erkinlikka qobiliyati, ijodga ma'suliyatini ochib berishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan belgilanadi.

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Adabiyotlarda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha tadqiqotlar tizimida o'rganilib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida chunonchi pedagogik innovatsion texnologiyalar o'zgarishlari asosida sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi. Bu o'zgarishlarni faqatgina umumiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi(27).

II-BOB. TADQIQOT VAZIFALARI, USLUBLARI VA UNI TASHKIL ETISH.

2.1 Tadqiqotning vazifalari:

1. Nazariy bilim olishda innavatsion texnologiyalarini o'ziga xos jihatlarini o'rganish.
2. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarini o'qitishda zamonaviy uslublaridan samarali foydalanish.
3. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirish tizimi va samaradorlik darajasini o'rganish.

2.2. Tadqiqotning uslublari.

Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalanildi: ilmiy – uslubiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil etish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, eksperiment tajriba, matematik statistika uslublari.

2.2.1. Ilmiy uslubiyat adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish.

So'nggi yillar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda (O'. Q. Tolipov., L.V. Golish., N.Azizxadjaeva). Faol faoliyat jarayonidagina axborotlarni samarali o'zlashtirishga erishish mumkin. Shuning uchun innavatsion texnologiya va ularning rolini o'qish jarayonida takomillashtirishni umuman amalga oshirish bo'yicha talabalarning o'quv - o'rganish faoliyatlarini o'rganish alohida dolzarb ko'rinish oldi.

Innavatsion usullari faqat talabalar bilimlari tizimi emas, balki ularning idrok etish qobiliyatlarini, faolliklarini, qiziqishlarini, aqliy faoliyatlarini rivojlanishini ham ta'minlovchi didaktik shart sifatida tushunish keng tarqalgan. Texnologiyalarnilarni turli fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari muvofiqligini ta'minlovchi vosita sifatida tor uslubiy tushunish ham mavjuddir.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarda mustaqil didaktik tamoyilga ajralib chiqishi mustahkam tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ushbu adabiy manbalarga

tayanib jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida tuli xil zamonoviy metodlardan va ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga manbalar o'rgaib chiqildi va taxlik qilindi.

2.2.2. Pedagogik kuzatuv.

jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida va darsdan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarni ochish uchun pedagogik kuzatuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Jismoniy madaniyat fakulteti 2 kurs talabalarining Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining ma'zmoni, o'quvchilarning u yoki bu vazifani bajarishga munosabati, zamonoviy metodlardan foydalanish davomida talabalarning duch keladigan qiyinchiliklar, nazariy bilim olishida qollanilgan texnologiyalarni to'g'ri qo'llash malakasi va boshqa ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

2.2.3. Pedagogik nazorat sinovlari.

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarini jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslar samaradorligini oshirish ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq.

2.2.4. Pedagogik tajriba.

Pedagogik tajriba jismoniy madaniyat fakulteti sharoitida jismoniy madaniyat nazariyasini bilish sifatlarini rivojlantirish bo'yicha zamonoviy metodlarni amaliy qo'llash samaradorligini, shuningdek, ularning o'zaro aloqasi hamda o'zaro ta'sirini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Pedagogik tajriba jismoniy madaniyat fakultetida o'tkazildi.

2.2.4. Matematik statistika uslublari.

Matematik statistik usullarni jismoniy tarbiya va sport nazariyasida umumiy qabul qilingan, matematik va statistik usullarda foydalanishni asos sifatida oldik.

Tadqiqot natijalarini taqqoslashda oddiy matematik statistik usullardan: o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (\bar{X} o'rtacha) dan foydalandik.

2.3. Tadqiqotni tashkil etilishi va o'tkazilishi.

Tadqiqot ikki bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda tadqiqotning ilmiy yo'nalishini aniqlash bo'yicha ish olib borildi, adabiyotlar tahlil qilindi. Pedagogik tajriba o'tkazish va tadqiqotni tashkil etish dasturi ishlab chiqildi (2018 yilning noyabridan – 2019 yilning mayigacha).

Ikkinchi bosqich 2018 yilning noyabridan 2019 yil may oyigacha davom etdi. Bu bosqichda jismoniy madaniyat fakulteti 2 kurs talabalari bilan ta'lim texnologiyalarini qo'llash bilimini rivojlantirish, darslar davomida zamonaviy metodlardan foydalangan xolda dars samaradorligini oshirish ustida tadqiqotlar o'tkazildi. Talabalar bilimini oshirish jarayonida an'anaviy tarzda qo'llanilgan texnologiyalar kafedraning tajribali o'qituvchi tomonidan qo'llanildi. Butun tadqiqot davri davomida ilmiy- uslubiy adabiyotlar ustida uzluksiz ishlandi, ilg'or pedagoglarning tajribalari qo'llanildi, shuningdek, talabalarning jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi dars mashg'ulotlari jarayonida pedagogik kuzatuvlar olib borildi.

III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNI QIYOSIY TAXLILI

3.1. Jismoniy tarbiya darslarini o'qitishda zamonaviy uslublaridan samarali foydalanish

Talabalarda innovatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirish muhim ilmiy, siyosiy, pedagogik muammo hisoblanadi. Buning uchun, yangi o'qitish uslublari, jumladan innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Pedagogikada o'qitish uslublarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas.

Didaktikada o'qitish uslublarini bilimlar manbai (E.Ya.Golant), didaktik maqsadlar (B. P. Esipov), bilish faoliyatining saviyasi (I. Ya. Lerner, M. I. Maxmutov va boshqalar.) bo'yicha farqlash eng ko'p tarqalgan.

Uslublarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli qilib farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda etarlicha tahlil qilingan. O'qitish uslublarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha uslublar qo'yidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki uslublar
2. Ko'rsatmali uslublar.
3. Amaliy uslublar.

Bu uslublar o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir o'qitish uslubining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish uslublarining rag'balantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq uslublarni tanlashda ana shu usullarning bajarilishi mumkinligini, ularning tarkibini hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va ijod uchun asos bo'ladi.

quyida o'qitish uslublari haqida fikr yuritiladi:

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish uslublaridan iboratligi o'z aksini topgan. Bularning g'oyalaridan hozirgi ta'lim tizimida ham foydalanish mumkin.

I.Ya. Lerner va M. N. Skatkin o'qitish uslublarini qo'yidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish - rasmlar uslubi;
- reproduktiv uslub;
- muammoli bayon qilish uslubi;
- qisman izlanish uslubi;
- tadqiqot uslubi.

M. A Danilov va B.P. Esiplar quyidagilarni taklif etishadilar:

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya-tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish.

2. Talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish, joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S. I. Perovskiy va E.Ya Golant tasnifi: faol va passiv uslublarga bo'lishni ko'zda tutgan:

- agar talabalar mustaqil ishlasa - faol uslublar (laboratoriya uslubi, kitob bilan ishlash);

- agar talabalar faqat tinglasa va eshitsa, passiv uslublar (hikoya, ma'ruza tushuntirish, namoyish qilish uslubi, ekskursiya).

Bunday tasniflash ma'qul emas, chunki u talabalarning ongligi va faolligi printsipiga salbiy ta'sir etadi.

Yu. K. Babanskiyning tasnifi buyicha uslublar uchta guruhga bo'linadi:

-o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-ularni rag'batlantirish va motivlashtirish;

-nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish.

Babanskiyning tadqiqot ishlarida qator yangi uslublar va usullar mavjud.

Babanskiy quyidagilarni tavsiya etadi:

- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat uslublari.

T.A.Ilina, A. Munavvarovlar olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K. Babanskiyning qarashlariga tayangan holda tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etganlar:

- yangi bilimlarni (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya ma'ruza uslublari);

- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan uslublar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yinlar, mashqlar;

- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash uslublari; - mustaqil ish.

S.P. Baranov o'z tasnifini guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirishlarni kiritadi. Bunda talabaning asosiy vazifasi o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikriga o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi.

Talabaning asosiy vazifasi-o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir. Ikkinchi guruhga o'qitishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi.

Talaba faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan uslubning samaradorligini belgilaydi.

O'qituvchining roli talabalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini kengaytirish ko'p jihatdan o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya tushunchasi muhim ahamiyatga ega. «Motivatsiya-shaxs hatti-harakatini yuzaga keltiruvchi ichki haraktlantiruvchi kuch, hissiyot bo'lib, pedagog uni boshqarishga harakat qiladi va o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun hisobga oladi. Uni amalda o'rganilayotgan faoliyat tajribalaridan taassurotli dalillarni maxsus yig'ishi va talabalarga o'qitilayotgan predmetning asosiy holatlari bo'yicha bilimlar asosida noqulay vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini namoyish qilish kerak». (Sayidaxmedov, 2003). Demak, o'qituvchi nazariy bilimlarni talabalarda oshirishda har bir dars maqsadi va mazmuniga mos keladigan motivatsiya ma'yorini aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Pedagogikada talabalarni darsga qiziqtirish texnologiyalari xilma-xildir.

qo'yida ana shunday innovatsion texnologiya bayon etiladi.

Aqliy hujum (Breyshtorming) usuli Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya qilish usuli. qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar: uni echish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar (generatsiya kiladi). U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag'batlantiradi.

«Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida Yangi - yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan talabalarning ko'proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi.

g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

«Aqliy hujum» qoidalari: Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda aytilishi lozim; Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, tankid ostiga olinmaydi, baholanmaydi;

Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi; qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi; Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin; Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi; Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi. Bu texnologiya barcha funksiyalarni bajaradi lekin uning asosiy vazifasi - muammoni mustaqil tushunish va echishga ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otishdan iboratdir.

Aqliy hujum usulining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va mazmuni | Faoliyat | |
|--|---|--|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1- bosqich Tayyorlov | Mavzuni aniqlaydi, maqsadni natijalarni, baxolash mezonini shakllantiradi | |
| 2-bosqich Kirish | Mavzuning maqsad, natija va baholash mezonini e'lon kiladi. Aqliy hujum usuli maqsadni amalga oshirish usuli ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon qilib, tadqiqotni boshlash to'g'risida buyruq beradi. | |
| 3- bosqich g'oyalarni kiritish | g'oyalarni magnitofon yoki videolentaga, qogoz varag'iga yoki doskaga yozib olishni taklif qiladi. | Talabalar muammoni hal etish buyicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar. |
| 4- bosqich Tahlil | Taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi. | Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil etadi. Eng qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar. |
| 5- bosqich YAkun yasash, tahlil va baholash | Talabalar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi. | O'z-o'ziga baho berishlari mumkin |

3.2. Oliy o'quv yurtlarida yangi pedagogik texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirish tizimi va samaradorlik darajasi

Pinboard usuli. (inglizchadan: pin - mustahkamlash, board - doska)

Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari - rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: talabalarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini fakat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Pinboard usulining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va tarkibi | Faoliyat | |
|--|---|--|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1- bosqich Tayyorlov | <i>Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi, natija va baholash mezonlarini aniklaydi.</i> <i>qiziqtiruvchi (muzokarani) savol va asosiy fikrlarni shakllantiradi.</i> | |
| 2- bosqich Mavzuni ishlash | Mavzu tuzilishini aniqlaydi, o'z mulohazalarini bildiradi va o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbord» usulini tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berishi mumkin. | Munozara vaqtida mavzuni ishlab chiqadilar. |
| 3- bosqich O'z xulosalarini yozma bayon etish | Kuzatadi | Munozara davomida shakllangan fikrlarini asosiy xulosalar ko'rinishida qog'oz varog'i yoki kartochkaga yozib doskaga ilib qo'yadilar |
| 4- bosqich Umumlash-tirish | Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak berish. | O'quv guruhining 2-3 a'zosi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda |

| | | |
|---|---|--|
| | | mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlariga bo'ladilar. Strelka, chizma va boshqa belgilarning yordamida ularning o'zaro munosabatini: bitin butun yoki qarama-qarshi nuqtai nazarini shakllantiradilar |
| 5- bosqich Yakun yasash, tahlil qilish, baholash | Talabalar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi. | O'z-o'ziga baho berishni amalga oshirishlar mumkin. |

Munozara (Muhokama) usuli

Ko'p hollarda seminar mashg'ulotlari orada o'qituvchi monologlari bilan bo'linadigan talabalar monologlari shaklida o'tadi, qolgan talabalar esa shu paytda zerikib o'tiradilar. SHuning uchun darsda munozara usulini qo'llash barcha talabalarning faolligini oshirib, zerikishlariga yo'l qo'ymaydi.

«Munozara»ni o'tkazish usuli:

1. O'qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va talabalarni taklif qiladi;
2. O'qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi, talabalar guruhlariga bo'linadi;
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh a'zolarining har biri o'z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi;
4. Talaba (etakchi) ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi.
- Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul echimini topishga harakat qilinadi.

O'qituvchi munozara paytida quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Siz misol keltira olmasizmi?
- Nahotki! Nima uchun?
- Bu fikr Maxmud aytgani bilan qanday qilib moslanadi?
- Demak, siz Baxromning fikriga qo'shilasiz?
- Siz menga aytmang, Jasurni ishontirishingiz lozim!

Talabalar fikrlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat'iy qoidasi bo'lib hisoblanadi. O'kituvchi fikrlarning mantiqsizligiga, yaqqol qarama-qarshi, asossiz fikrlarning bildirilishiga ham yo'l qo'ymasligi lozim.

Odobli luqma bilan fikrlarning asoslilikini, aytilgan yoki qo'llab-quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularda g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

Muzyorar usuli

Ko'pchilik odamlar notanish vaziyatda (yangi sinf yoki yangi maktabda, kursning boshlanishida) bo'lganlarida o'zlarini jur'atsiz sezishadilar. Ko'pincha bir-birlarini bilishmaydi. Agar xech bo'lmaganda bir kishi bilan tanish bo'lsalar, ular birga bo'lishadilar. Shuning uchun o'qituvchi (yoki boshlovchi) talabalarga o'zlariga ishonch hissiyotini beradigan do'stona muhitni va ular o'zlari o'rganishlari kerak bo'lgan narsaga diqqatlarini qarata oladigan vaziyatni yaratishi kerak. Bunda Muzyorar usulidan foydalanish mumkin. Bu usul ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi «Muzni» eritish, «parda»ni yo'qotishga qaratilgan usul.

Muzyorarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Taqdim etish

Talaba yoki ishtirokchilardan ular o'zlarini tanishtirishlari va o'zlari to'g'risida muayyan axborot berishlari so'raladi. Ular taqdim etgan axborot saylanmasi sinf yoki kurs xususiyatiga bog'liq. Bu quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ism-sharifi
- yashash joyi
- qiziqishi

- fanlarga munosabati

Bu axborot jadval shaklida katta qog'oz varag'iga yozib jamlansa yaxshi bo'ladi.

Bu usul kam vaqtni oladi (har bir talabaga 1-2 minut), biroq undan 30 kishidan ko'p guruhlarda foydalanib bo'lmaydi. Bizda ular haqida axborot kam bo'lgan, ulardagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun yaxshi, biroq u har doim ham guruh a'zolarining yaxshi tanishishlariga kafolat bermaydi.

2. Interfaol

Bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, ularga tanishib olishlari uchun 2-3 minut vaqt beriladi. So'ng juftlikning har bir a'zosi butun guruhga o'z sherigi to'g'risdagi ma'lumotlarni biror qiziqarli faktni qo'shgan holda taqdim etadi.

Bunda guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishishi kafolatlanadi. Bu usul ishtirokchilarga dadillik hissini beradi. Biroq bu usulni 25 kishidan ortiq guruhda qo'llash mumkin emas.

3. Jadvallar

Har bir ishtirokchiga flomaster va katta qog'oz varog'i beriladi. qog'oz to'rt qismga bo'linib, har biriga quyidagi axborotni yozish topshiriladi:

- qog'ozni yuqoridagi chap burchagida: o'zini bir so'z bilan tasvirlasin;
- qog'ozni yuqoridagi o'ng burchagida: nima bilan faxrlanishini yozsin;
- qog'ozni pastdagi chap burchagida: o'zi haqida qandaydir bir sirni oshkor kilsin (bu jiddiy sir bo'lishi majburiy emas, biroq shunday axborot bo'lsinki, u haqda ishtirokchilardan hech kimga ma'lum bo'lmasin);
- pastdagi o'ng burchakda: o'z xobbisini chizib bersin.

(Jadvalning katakchalarini guruh xususiyatiga qarab o'zgartirish mumkin).

Hamma ishtirokchilar ishni tugatganlaridan keyin ular jadvalni oldlarida ushlab zalning o'rtasiga chiqishadi. U yoq - bu yoqqa o'tib ishtirokchilar bir-birlari bilan tanishadilar. Ishtirokchilar o'z ismlarini jadvallarga yozib, ularni devorga ilib qo'yishadilar.

Klaster usuli

Klasterlarga ajratish - talabalarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi.

«Klaster» so'zi g'ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi.

Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.

Klaster usulini tuzish ketma-ketligi:

1. Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha talabalarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan usullar bilan bir qatorda faol o'qitish uslublari sirasiga kiruvchi «Etakchi sportchi» yoki «Tarozi» deb yuritiluvchi o'yinlar nazariy bilim va ko'nikmalar hosil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur

o'yinlarning nazariy va amaliy jihatdan mohiyatini bayon qilgan bir qator olimlar Ya. M. Belchikov, M. M. Birshteyn, V. M. Karimova, N. S. Sayidaxmedovlardir.

Bu o'yinlari - faol o'qitish uslublaridan biri bo'lib, u real o'rganilayotgan ob'ektni to'g'ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatini o'yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir» (14).

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan nazariy bilimlarni oshirish qo'yidagi holatlarda ijobiy kechadi:

-birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida talablarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

-ikkinchidan, muammoli vaziyatlar orqali talabning qiyinchiliklarni engish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

-uchinchidan talabalarning motivatsion doirasiga ta'sir o'tkazish, ya'ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish;

-to'rtinchidan, kreativ (noyob, standartli bo'lmagan) qobiliyatlarini kamol toptirish, ularda mantiqiy o'ylash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

-beshinchidan, mustaqil fikrlab, to'g'ri xulosa chiqarishga tayyorlashadi;

-oltinchidan, hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni taxlil etib, undan chiqib ketish darajasiga tayyorlash.

Bu uslublar talabalarda jahon andozasiga mos bilimlarni egallashlariga imkon beradi.

**2-kurs talabalarining anketalashtirishdagi savollarga bergan
javoblari bo'yicha natijalar n-80**

| | Savol | xa | % | yuk | % | Kisman | % |
|---|---|-----------|----------|------------|----------|---------------|----------|
| 1 | <i>Sizga jismoniy tarbiya-darsi pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida o'qitilishi kerakmi?</i> | 65 | 81,25 | 5 | 6,2 | 10 | 12,5 |
| 2 | <i>Uyda, ko'chada axborot texnologiyalardan foydalanasizmi?</i> | 22 | 20 | 55 | 49 | 37 | 31 |
| 3 | <i>Pedagogik va axborot texnologiyalari haqida tushunchaga egamisiz?</i> | 24 | 20 | 34 | 56 | 26 | 24 |
| 4 | <i>Axborot texnologiyalari kundalik turmushda zarurmi?</i> | 60 | 51 | 10 | 8,9 | 44 | 40 |
| 5 | <i>Jismoniy tarbiya darslarini mazmunli o'tiida pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni bormi ?</i> | 75 | 73 | 10 | 8,1 | 22 | 19 |
| 6 | <i>Pedagogik texnologiyalaridan muntazam shug'ullanmasizmi?</i> | 67 | 30 | 2 | 50 | 22 | 20 |
| 7 | <i>Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanmasizmi?</i> | 51 | 20 | 34 | 55 | 29 | 25 |
| 8 | <i>O'qituvchingiz seminar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalar usullaridan foydalanadimi?</i> | 75 | 30 | 10 | 50 | 11 | 20 |
| 9 | <i>Pedagogik va axborot texnologiyalardan bilimingiz etarli mi?</i> | 15 | 12 | 55 | 85 | 3 | 3 |
| | O'rtacha | | | | | | |

Anketa natijalariga ko'ra talabalarining 80 nafari anketalashtirish jarayonida qatnashishdi. Unda 1-savol “*Sizga jismoniy tarbiya darsi axborot texnologiyalar yordamida o'qitilishi kerakmi?* degan savolga” 80 (69.1%) nafar talaba “XA” deb, 5(4.8%) nafar talaba “YO'Q” deb 29 nafari qisman (27.6%) javob berdi. Javoblar taxlilini quyidagi tartibda

Anketa savol javoblari natijisiga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Talabalarining pedtexnologiyalari asosida ta'lim berish haqidagi tushuncha va bilimlari etarli emas

Mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalari asosida o'tish muntazam qo'llanilmagan

Pedagogik tajriba 2018-2019 o'quv yili baxorgi semestrda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubikasi fani bo'yicha (o'qituvchi N.Osmonbekova) o'quv darslarini yangi ped texnologiyalari asosida olib borildi.

Tajribada quyidagi mavzular bo'yicha pedagogik texnologiya uslublari qo'llanildi.

| Semestr bo'yicha o'tiladigan ma'ruzalar | Qulanilgan AT uslublari | | |
|--|-------------------------|-------------|--------------------|
| | prezintatsiya | Video lavxa | Interfaol uslublar |
| Jismoniy madaniyat bo'yicha DTS mazmuni va o'quv materiallarining tasnifi | + | | BBB |
| Maktab jismoniy madaniyat bo'yicha o'quv ishlarini rejalashtirish | + | | KLASTER |
| Jismoniy madaniyat darsi | | + | |
| Jismoniy madaniyat darslarida pedagogik nazorat | + | | FSMU |
| Sog'lig'i zaif o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi | + | | AKLIY XUJUM |
| Jismoniy madaniyat bo'yicha darsdan tashqari ishlar | | + | |
| Akademik-litsey va Kasb-xunar kollejlarda jismoniy madaniyat | + | | NIMA UCHUN |
| Oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat | | + | INSERT |
| Xarbiyga chaqiruv oldi va chaqiruvchilar jismoniy madaniyati | + | | |
| Katta yoshlilar jismoniy madaniyati | | + | ZANJIR |
| Sportning mohiyati va uning jamiyatdagi o'rni, uning ba'zaviy qismlari va maxsus xizmat bo'limi. | + | | DARAXT |
| Sport mashg'ulotlarining tomoynlari. | + | | |
| Sport mashg'ulotlarining vositalari. | + | | BBB |
| Sport mashg'ulotlarining tamoyillari. | + | | |
| Sport mashg'ulotlarining usuliyati. | + | + | FSMU |
| Sportga yo'naltirish va tanlov o'tkazish. | + | | |
| Sport mashg'ulotlarining tuzilishi | + | | |
| O'zbekistonda bolalar sportining va uzluksiz sport tizimining rivojlanishi. | + | | BBB |

3.3. Tadqiqot natijalari va tavsiyalar

Talabalarda innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni oshirish tadqiqiy o'qitish jarayonida 2-bosqich talabalari ishtirokida o'tkazildi.

Eksperimental tadqiqotni jismoniy tarbiya darsini amaliy mashgulotlarida o'tkazdik.

Tajriba-tadqiqotda asosan, innovatsion usullar: «Ajurli arra», «Breynshtorming», «Klaster», «Insert», «BBB» o'yinlari orqali talabalarning nazariy bilimlarni oshirishga mo'ljallangan tizimni tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tajriba-sinovda eksperimental guruhlarini tavsiya qilayotgan uslubika bo'yicha o'qitdik.

Sinov (kontrol) guruhlardagi talabalarning o'qish jarayoni esa an'anaviy uslubika bo'yicha davom etdi. Tadqiqot bo'yicha barcha ma'lumotlar maxsus qaydnomalarga yozib borildi va ularga statistik ishlov berildi.

Tadqiqot darslari asosan quyidagi bosqichlarni qamrab olishi lozimligi nazarda tutildi:

- innovatsion texnologiyalar orqali nazariy bilimlarni oshirishni talabalarga anglatish, buning uchun maxsus lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- talabalarda nazariy bilimlar tizimini mukammal o'zlashtirishlari uchun o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlikda ishlash malakalarini oshirish;
- o'z fikrini tortinmasdan gapirishga o'rgatish;
- kommunikativ qobiliyatlaini o'stirish.

Birinchi dars boshlandi. Bu darsda «Ajurli arra» uslubi orqali nazariy bilimlarni talabalarda oshirishga qaratilgan topshiriqlar majmuini tuzib chiqdik.

Nazariy bilimlarni o'zida qamrab olgan matnli materiallar bir nechta asosiy bo'laklarga (qismlarga), qirqildi.

Talabalarni guruhlariga bo'lib, har bir guruh a'zosiga qirqilgan mavzu tarqatildi, chunonchi 1-bosqich darsini seminar mashgulotida biror mavzusiga mos o'quv topshiriqlar talabalarga tarqatildi.

Talabalar mavzuni muhokama qilib boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhiga birlashdilar.


Talabalar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar; ekspert guruhlarda o'rganganlarini ushbu guruhlarga o'rgatishadi, ya'ni o'qitish jarayoniga bu tarzda yondashilganda talabalarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishlariga imkon yaratiladi.

Shuni ta'kidlash joizki har bir talaba ikki guruh tarkibida ishtirok etdi.

Dastlab birinchi guruhda talaba muayyan ma'lumot, bu o'rinda biror bir sport turi (mavzu bo'yicha) to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ldilar, keyinchalik, ekspert guruhiga birlashgach o'quv elementlarini mustaqil o'rganishdi. Biz ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun talabalarga oldindan ularning har biriga mo'ljallangan axborotli paket tayyorladik. Ularga darslikdan qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal maqolalardan materiallar joylashtirdik. Bunda talabalar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar eksperimental tadqiqot diqqat markazida talabalarda nazariy bilimlarni oshirishga, ularda bilimdonlikni oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tavsiyalar
Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material


Fan bo'yicha «Klastera» uslubi
« Yengil atletika va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha
1-variant



Izox: Bu uslub o'kuvchilarni fikrilash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustaxkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material

Fan bo'yicha «Klastera» uslubi
« sport va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha
2-variant



Izox: Bu uslub o'kuvchilarni fikrilash faoliyatini jaddalashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustaxkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material
Fan bo'yicha «Bumerang» uslubi
« Gimnastika va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha
1-variant

| Mavzular mazmuni (estafetali yugurish, sakrash o'yinlar) | | | | |
|---|-------------|----------------|------------------|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| Musobaqa uslubi | Buyumlarsiz | Buyumlar bilan | Aylanma estafeta | Sport turlarini o'rgatuvchi estafetalar |

Izox: Bu uslub texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, xotirani g'oyaalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarni shakllantiradi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material
Fan bo'yicha «Bumerang» uslubi
« Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubikasi» fani bo'yicha
2-variant

| Mavzular mazmuni (jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar) | | | | |
|---|--------------|---------------|-------------|-----------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| Kuchni rivojlantiruvchi | Chaqqonlikni | Chidamlilikni | Tezkorlikni | Egiluvchanlikni |

Izox: Bu uslub texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, xotirani g'oyaalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarni shakllantiradi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material

Fan bo'yicha «Zanjir» uslubi « sport va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha 1-variant

Sport – tennis – start – tirkak – kuch - chidamlilik 100 ta so'zga qadar
(10-15 daqiqa vaqt beriladi)

Izox: Bu uslub jismoniy tarbiya va sport psixologiyasiga taalluqliy so'zlarni o'z ichiga olib talabalarni fikirlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulot jarayonlariga, sport maydonlariga, suv xavzalariga, stadion, sport zallariga etaklaydi. Talabalarning bilimni baxolanishi

80-100 5 baxo 60-79 4 baxo 40-59 3 baxo qo'yiladi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material

Fan bo'yicha «Zanjir» uslubi « jismoniy tarbiya » fani bo'yicha 2-variant

1. Estafeta – buyumlar bilan va buyumlarsiz
2. sport o'yinlar harakatlari – Yurish — Yugurish – Sakrash - Uloqtirish
3. sport musobaqalari – qisqa masofaga yugurish – uloktirish – sakrag
4. Jixozlar - sekundamer – bayroqcha – shutak – sakramachoq – estafeta tayoqchalari

Izox: Bu uslub jismoniy tarbiya va sport psixologiyasiga taalluqliy so'zlarni o'z ichiga olib talabalarni fikirlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulot jarayonlariga, sport maydonlariga, suv xavzalariga, stadion, sport zallariga etaklaydi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material

Fan bo'yicha «Tarozi» uslubi « sport va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha 1-variant

Sport musobaqasida qatnashgan sportchi (bola) shug'ullanuvchi yutuqlarini ijobiy va salbiy tomonlari xaqida fikr yuritish

| Jamoalar nomlari | |
|-----------------------------|---------------------------------------|
| Muvoffaqiyat xolat | Mag'lubiyat xolat |
| Ijobiy tomonlari | Salbiy tomonlari |
| 1. Kayfiyatini ko'tarilishi | 1. O'z kuchiga ishonchning yo'qolishi |

Izox: Bu texnologiya kichik guruxlarda va jamoalar orasida tadbiq etiladi. Shuningdek o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarda qo'llanilishi mumkin. O'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilishh bosqichida yuqori Samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material

Fan bo'yicha «Tarozi» uslubi « sport va uni o'qitish uslubikasi» fani bo'yicha 2-variant

O'yinlar orqali harbiy tayyorgarligini oshirish salbiy va ijobiy tomonlari

| Jamoalar nomlari | |
|--------------------------------|------------------------------------|
| Kasbga yo'naltirilgan o'yinlar | O'yinlarni anjomlar bilan bajarish |
| 1. Iqlim sharoitning ta'siri | 1. Anjomlarning yo'qligi |

Izox: Bu texnologiya kichik guruxlarda va jamoalar orasida tadbiq etiladi. Shuningdek o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarda qo'llanilishi mumkin. O'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilishh bosqichida yuqori Samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material
Fan bo'yicha «Agarda Men» uslubi
«Jismoniy madaniyat » fani bo'yicha
fani bo'yicha

1-variant

Agarda men jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lsam.....

Izo: Bu uslub interfaol texnologiya bo'lib, tanqidiy, taxliliy, aniq mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatlik rivojlantirishga hamda o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek har bir qatnashuvchining o'z fikrlari, o'zgalardan kutadigan tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.


Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material
Fan bo'yicha «Agarda Men.....» uslubi
« Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» fani bo'yicha
fani bo'yicha

2-variant

Agarda men atletik bo'lmasam

Izo: Bu uslub interfaol texnologiya bo'lib, tanqidiy, taxliliy, aniq mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatlik rivojlantirishga hamda o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek har bir qatnashuvchining o'z fikrlari, o'zgalardan kutadigan tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Yangi pedagogik texnologiya uslubi bo'yicha tarqatma material
Fan bo'yicha «Echim daraxti» uslubi
»Yengil atletika» fani bo'yicha
1-variant (sport zali va sport ploshatkalari)



Izox: Jismoniy tarbiya va sport bilan sho'g'ullanishda ta'sir qiluvchi omillar mavzusi misolida olinib, bu texnologiya orqali talabalarni faol xayotiy nuqtaiy nazarini shakllantirish, o'z fikriga xurmat va toqat qilish, jamoada ishlashni eplay olish, murosali qaroriga kela olish, xushmuomilalikni, mas'ullik va qiziqishini uyg'otadi.

XULOSA

1. Jismoniy tarbiya darslarida nazariy bilimlarni o'qitish jarayonida yangi ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish maxsus fanlar mazmunini yangilash ularning asoslari borasida talabalarga chuqur nazariy bilimlar berish, nazariy bilimlar asosida amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini berdi.

2. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini taminlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshish kasb xislatlarining ham shakllanishiga zamin yaratadi.

O'tkazilgan tajriba-sinov tadqiqoti quyidagilarga asos bo'ladi:

Tajriba-tadqiqot mobaynida eksperimental guruh talabalarga tavsiya qilgan tizim bo'yicha darslar tashkil qilinganda talabalarda nazariy bilimlarni oshirish mohiyatini chuqur anglashga zamin yaratildi.

Talabalarda matn bilan ishlash ko'nikmasi rivojlantirildi. Ular og'zaki va yozma nutqning barcha ko'rinishlarini egalladilar, matn bo'yicha tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishish malakalariga hamda guruh bilan ishlash texnologiyalariga ega bo'ldilar. Talabalarda innovatsion usul («Aqliy hujum», «BBB», «Klaster» va h.k) lar orqali nazariy bilimdonlikni oshirishga yordam beradi.

3. Tajriba-tadqiqot jarayonida talabalarda o'z fikrlarini erkin ifodalashlari, axborotlarni tanqidiy qabul qilishlari, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllantirildi. Talabalar o'z mavqeini mustahkamlashga, fikrlarini himoya qilishga o'rgandilar va eng asosiysi, jismoniy tarbiyani rivojlantirish dars o'tishning yangi texnologiyalarini o'ziga xos xususiyatlarni chuqur angladilar. Bu ularning mustaqil va ijodiy ishlarida o'z aksini topdi.

Talabalarning nazariy bilimlarni oshirishda keltirib o'tilgan o'yinlarni qo'llanilishi sifatli va samarali o'qitishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qarori, Ushbu Qaror "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 6-iyundagi 111 (6805)-sonida e'lon qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 5 martdagi 3583 sonli «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2018-y.
3. M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent "O'zbekiston" 2016yil.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. "O'zbekiston". 2017. 488 b.
5. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. Т., Ўзбекистон, 2000. 528 б.
6. Азизхаджаева Н. «Педагогик технология ва педагогик маҳорат» ўқув йўлланма Т.,2006 15 ббет
7. Бўрибоев А. «Педагогик технология» Т., 2004й 123бет.
8. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивное технологии обучения. Учебные пособия Москва: ИРПО, 1996, -336 стр.
9. Голиш Л.В. «Замонавий таълим технологиялари» Халқ талими 2003й 178бет.
10. Зуннунов А.,М.Хайруллаев, Н. Хотамов,Д. Шодиев Урта Осиёда педагогик фикр тараккиётидан лавхалар. -Т:Фан, 1996, 351бет
11. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе . Учебные пособия. Москва: 1989г.
12. Монахов В.М. Аксиматический подход к проектированию педагогической технологии Ж. Педагогика. 1997. № 6.
13. Монахов В.М. Методология педагогической технологии академика В.А. Монахова.- Москва: Михайловка. МЦОП. 1997.

14. Олий педагогика ўқув юртларининг ўқув жараёнига педагогик технологияларни татбиқ этишнинг илмий асослари Республика илмий-методик конф. материаллари.- Тошкент: ТДПУ. 2000.
15. Очилов М. Янги педагогик технологиялар.Ўқув қўлланма- Қарши. Насаф. 2000й 134бет.
16. Маҳмудов М. Комил инсон шахси ва ижтимоий тажриба. «Педагогик маҳорат», 2002 й, 4-сон, 6-10 б.
17. Набатникова М.Я. Теоретико-методические положения системы подготовки юных спортсменов Основы управления подготовкой юных спортсменов.- М.: Физкультура и спорт, 1982.-С. 31-39.
18. Сайидахмедов Н. Педагогика фани методологияси ёхуд унинг замонавий мазмуни ҳақида: Амалиёт ва назария Маърифат.-2004.- 21 феврал.
19. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар-уқув кулланма- Т., «Молия», 2003 йил, 240б.
20. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт). Тошкент: Молия нашриёти.2003 141б.
21. Саидахмедов Н.Педагогик амалиётда янги технолоиларни қўллаш намуналари.-Тошкент:РТН.2000.
22. Селевко Г.К. Соколова, Современный образование технологии.- Москва: Народное образование.1998г 124б.
23. Толипов Ў.К. ,Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. Монография. Тошкент:”Фан”. 2005й 217б.
24. Толипов Ў.К. Мавланова К.С. Педагогическая технология в профессиональном образовании учителей Мат. И международной научно-методической конф.Том ИИ.-Тараз:1988.
25. Толипов Ў. К. Технология педагогического эксперимента Материали И международной научно-методической конференции.Том ИИ.-Тараз:1998.

26. Толипов Ў. Тажриба-синов ишларида янги педагогик технологиялар
Халқ таълими ж. 2000.№ 2
27. Толипов Ў. Ўқитувчилар тайёрлашда янги педагогик технологиялар
Халқ таълими ж. 1999.№ 2-3.
28. Толипов Ў. Педагогик технология ва уни лойиҳалаш босқичлари
ДЦларни ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш ҳамда касбий таълимда
узвийликни таъмилаш муаммолари. Республика илмий-амалий конф.
Мат.-Тошкент:ЎзПФТИ.2000.

Tavsiya etiladigan veb saytlar va boshqa manbalar.

1. <http://e.tuit.uz>
2. <http://tuit.uz>
3. <http://edu.uz>
4. www.pedagog.uz
5. www.biblateka.uz
6. www.sport.uz
7. www.axborot.uz